

---

## ENDI YOSHLAR VA XOTIN-QIZLARGA O'Z BIZNESINI TASHKIL ETISH UCHUN 33 MILLION SO'MGACHA MIKROKREDITLAR TA'MINOTSIZ AJRATILADIGAN BO'LDI

**“Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Prezident qarori qabul qilindi.**

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, kambag'allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish qarorning maqsadi hisoblanadi.

Qarorga muvofiq, 2020 yil 15 noyabrdan yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning quyidagi tartiblari joriy etiladi:

Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi va Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan tashkil etilgan o'quv kurslarini tamomlagan har bir bitiruvchi uchun kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlariga sarflangan xarajatlarning 70 foizi, biroq har bir bitiruvchiga 1 million so'mdan ortiq bo'lmagan miqdori davlat tomonidan kompensatsiya qilinadi;

ushbu kurslarni muvaffaqiyatli tamomlab, sertifikat olgan shaxslarga o'z biznesini tashkil etish uchun mikrocredit ajratiladi.

“Mikrocreditbank” ATB tomonidan nodavlat ta'lim tashkilotlari maxsus sertifikatini olgan:

tadbirkorlik tashabbusiga ega jismoniy shaxslar, shu jumladan, yoshlar va xotin-qizlarga o'z biznesini tashkil etish uchun 33 million so'mgacha mikrocreditlar ta'minotsiz ajratiladi;

mikrofirma va kichik korxonalar ta'sis etgan shaxslarga uchinchi shaxs kafilligi, sug'urta polislari, kredit hisobiga sotib olinayotgan mol-mulklar garovi, Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining kafilligi asosida 225 million so'mgacha mikrocreditlar ajratiladi.

Bunda mikrocreditlar 3 yil muddatgacha 6 oygacha imtiyozli davr bilan Markaziy bankning asosiy stavkasida ajratiladi.

Qarorga ko'ra, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar hamda tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish orqali tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadlariga 100 million AQSh dollari ekvivalentida mablag' ajratiladi.

2022 yil 1 yanvardan Tadbirkorlikka o'qitishning yagona tizimi ishga tushiriladi.

2021 yil 1 yanvarga qadar “Mikrocreditbank” ATBning aholini, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish bo'yicha yangi biznes modeli ishlab chiqiladi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi aholini tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, xususan, ularni o'qitish, mikrocredit ajratish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish borasida vakolatli davlat organi etib belgilandi.

---

**Qo'shtepa tuman adliya bo'limi yetakchi maslahatchisi.**

2020-10-27 08:35:38